

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 597 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOIYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochirdiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohruh Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboyev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B.Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ АЛМГСІ ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liq Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinova	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSİYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQISH	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otayor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI	450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	454
Ismoilov Zuhridin Sayitqulovich	
ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNİ VA AHAMIYATI	459
Toshniyozov Otabek Hakimovich	
MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI	464
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi	



BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI	470
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	476
Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	483
Abduraxmonova Feruzabonu	
ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	489
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINING TASHKILIY TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH	495
Uzakova Umida Ruziyevna	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI VA PROFESSOR-O'QITUVCHI-TALABA NISBATI O'RTASIDAGI IQTISODIY BOG'LIQLIK	502
Dusanov Salim Mamarasulovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЫ AML: АНАЛИЗ ПРАКТИК ВЕДУЩИХ БАНКОВ И СТРАН СНГ	507
Рашидов Авазбек Рахимович	
BOJXONA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI	516
Radjapova Latofat Sardorovna	
DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ (STANDARD LINEAR SOLID MODEL, SLS) MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONINI TAHLIL QILISH	523
Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Faxriddinova Rayhona Vahobjon qizi, Rustamova Ruxsora Kamtar qizi	
ВЛИЯНИЕ КЕРАМИЧЕСКИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ НА ТЕПЛОВУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАМЕННОГО ТЕПЛОАККУМУЛЯТОРА В СОЛНЕЧНО-АССИСТИРОВАННЫХ БИОГАЗОВЫХ УСТАНОВКАХ	530
Д.М. Жураханов	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KELAJAKDAGI IMKONIYATLARI	537
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH	544
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Normatov Joxongir Murodillayevich	
DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	548
Aipova Iroda Ikramovna	
BUXORO VILOYATI SANOATI ISHLAB CHIQARISHINING TARMOQ TARKIBI DINAMIKASI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR TAHLILI	554
Toshov Mirzabek Hakimovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEZONLARI	560
Nurxo'jayeva Xilola Hakimxo'jayevna	
СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ УГОЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ НА ОСНОВЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	568
Teshaboyev To'liqin Zakirovich, Muradov Botir Xayyat	
IQTISODIYOT TARMOQLARIDA SUV ISTE'MOLINING BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	578
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Turg'unov Muhammadaziz Baxtiyorjon o'g'li	
SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MOBIL ILOVALAR ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI	584
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Uzakov Sirojiddin Djuraboyevich	



SUN'IY INTELLEKT VA IQTISODIYOTNING O'ZARO ALOQADORLIGI	591
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



SUN'IY INTELEKT VA IQTISODIYOTNING O'ZARO ALOQADORLIGI

Sobirov Abdurasul Abdugafarovich

ORCID ID: 0009-0005-1365-5932

Ph.D., dotsent

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti

Annotatsiya. Maqola sun'iy intellekt (SI) tushunchasi, uning iqtisodiyotdagi roli va samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada SI yordamida ishlab chiqarish, moliya, savdo hamda marketing jarayonlarini optimallashtirish, qaror qabul qilish tezligini oshirish orqali resurslardan samarali foydalanish kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, SI mehnat bozoriga ta'siri, yangi ish o'rinlarini yaratish va avtomatlashtirish natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar tahlil qilingan.

Maqolada SI bilan iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik, iqtisodiy samaradorlik hamda raqobatbardoshlikka ta'siri, kelajak istiqbollari keltirilgan. Aniqlangan asosiy xulosa shundan iborat, sun'iy intellekt iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish yoki optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, iqtisodiyot, tannarx, avtomatlashtirish, moliyaviy samaradorlik, raqobatbardoshlik.

Abstract. The study analyzes the concept of artificial intelligence (AI), its role in the economy, and its impact on economic efficiency. The thesis examines the optimization of production, financial, trade, and marketing processes using AI, speeding up decision-making, and efficient resource utilization. It also analyzes the impact of AI on the labor market, the creation of new jobs, and changes caused by automation.

The study demonstrates the relationship between AI and the economy, its effect on economic efficiency and competitiveness, as well as future prospects and recommendations. The main conclusion is that artificial intelligence is a crucial tool for automating and optimizing economic processes, improving efficiency, and enhancing competitiveness.

Keywords: artificial intelligence, economy, cost, automation, financial efficiency, competitiveness.

Аннотация. В исследовании анализируются понятие искусственного интеллекта (ИИ), его роль в экономике и влияние на экономическую эффективность. В работе рассматриваются вопросы оптимизации производственных, финансовых, торговых и маркетинговых процессов с помощью ИИ, ускорение принятия решений и эффективное использование ресурсов. Также анализируется влияние ИИ на рынок труда, создание новых рабочих мест и изменения, вызванные автоматизацией.

Работа показывает взаимосвязь ИИ и экономики, влияние на экономическую эффективность и конкурентоспособность, а также перспективы и рекомендации на будущее. Основной вывод заключается в том, что искусственный интеллект является важным инструментом автоматизации и оптимизации экономических процессов, повышения эффективности и конкурентоспособности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, экономика, себестоимость, автоматизация, финансовая эффективность, конкурентоспособность.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi iqtisodiy tizimlarning barcha bo'g'inlariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda iqtisodiy qarorlar qabul qilishda aniqlikni ta'minlash bilan zamonaviy iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanmoqda. Bugungi kunda SI nafaqat texnologik yangilik sifatida, balki iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik hamda barqaror rivojlanishni ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sun'iy intellekt va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik turli yo'nalishda namoyon bo'ladi: bir tomondan, iqtisodiy ehtiyojlar va bozor mexanizmlari SI texnologiyalarining rivojlanishini rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, sun'iy intellekt iqtisodiy jarayonlarning mazmuni va tuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda. Mehnat bozori transformatsiyasi, yangi kasblarning paydo bo'lishi, raqamli biznes modellarning shakllanishi hamda moliyaviy va real sektor faoliyatida avtomatlashtirish jarayonlarining kengayishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shu sababdan, sun'iy intellekt hamda iqtisodiyotning o'zaro aloqadorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, imkoniyatlari va ehtimoliy xatarlarini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlardagi o'zni, ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari hamda milliy va global iqtisodiyot rivojiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID DABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt (SI) va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro aloqa masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida sun'iy intellekt ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligi, mehnat bozori, iqtisodiy o'sish va institutsional tuzilmalarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu masala turli vaqtlarda ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganilgan.

Eng avval, texnologik innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini Yozef Shumpeter (1942) alohida ta'kidlab, iqtisodiy o'sishning manbai sifatida "ijodiy vayronkorlik" tushunchasini ilgari surgan. Uning fikricha, yangi texnologiyalar eski ishlab chiqarish usullarini siqib chiqarib, iqtisodiy tizimni yangilaydi. Bu g'oya sun'iy intellektning an'anaviy iqtisodiy jarayonlarni o'zgartirishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Neoklassik iqtisodiyot vakili Robert Solou (1956) texnologik taraqqiyotni uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosi sifatida ko'rsatadi. Solou modeliga ko'ra, kapital hamda mehnatning o'zi yetarli emas, balki texnologiya yalpi ishlab chiqarish hajmini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U "texnologik taraqqiyot bu iqtisodiy o'sishning tushuntirib bo'lmaydigan, ammo eng muhim omilidir" deya ta'kidlaydi.

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri haqida Vasilii Leontief (1982) ning qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. U hali XX asr o'rtalaridayoq mashinalar inson mehnatini siqib chiqarishi mumkinligini bashorat qilgan. Leontief fikricha, texnologiyalar samaradorlikni oshiradi, biroq bandlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Mazkur yondashuvni rivojlantirgan holda, Daron Ajemoglu, Paskual Restrepo (2018) va Diloram Qosimova (2025) sun'iy intellektning ikki tomonlama ta'sirini ko'rsatadi: bir tomondan, u avtomatlashtirish orqali ayrim kasblarni yo'q qiladi, ikkinchi tomondan esa yangi kasblar va vazifalarni yaratadi. Ularning tadqiqotlarida SI iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun mos institutlar va qayta ta'lim tizimi zarurligi ta'kidlanadi.

Raqamli iqtisodiyot masalasini chuqur o'rgangan Erik Brinolfsson, Endryu Makkafi (2014) va Abdurasul Sobirov (2025) sun'iy intellektni "ikkinchi mashina davri" ning harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi. Ularning o'ylashicha, SI mehnat unumdorligini keskin oshiradi, biroq daromadlar tengsizligini kuchaytirish xavfini ham keltirib chiqaradi.

Mehnat iqtisodchisi Devid Autor (2015) esa avtomatlashtirish va SI inson mehnatini to'liq almashtirmasligini, balki uni transformatsiya qilishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, sun'iy intellekt takrorlanuvchi vazifalarni bajaradi, inson esa ijodiy va analitik faoliyatga ko'proq yo'naltiriladi.

Mashhur iqtisodchi Jon Meynard Keyns (1930) texnologik ishsizlik tushunchasini ilgari surib, texnologiya insoniyat oldida yangi muammolarni keltirib chiqarishini aytgan. Uning fikricha, jamiyat texnologik taraqqiyotdan kelib chiqadigan muammolarga moslashishi zarur. Bu g'oya bugungi kunda sun'iy intellekt sharoitida yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Axborot texnologiyalari va bozorlar o'rtasidagi aloqani o'rgangan Xal Varian (2014) sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar iqtisodiy qarorlar qabul qilish sifatini oshirishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, algoritmik tahlil resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Nihoyat, sun'iy intellekt tushunchasining nazariy asoschisi Alan Tyuring (1950) ning ishlari iqtisodiy tadqiqotlar uchun bevosita asos bo'lmas-da, uning "mashina fikrlashi" haqidagi g'oyalari bugungi raqamli va intellektual iqtisodiyotning shakllanishiga zamin yaratgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt hamda iqtisodiyotning o'zaro aloqadorligini chuqur tahlil qilish maqsadida maxsus iqtisodiy tadqiqot metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Avvalo, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali sun'iy intellektning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, ilmiy



maqolalari va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi. Bu yondashuv tadqiqot mavzusining nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez metodlari qo'llanildi. Tahlil metodi orqali sun'iy intellektning iqtisodiyotning alohida sohalariga (mehnat bozori, raqamli xizmatlar) ta'siri alohida komponentlar kesimida o'rganildi. Sintez metodi esa olingan natijalarni umumlashtirish va yagona ilmiy xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Shuningdek, taqqoslash metodi yordamida turli mamlakatlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri solishtirildi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini taqqoslash orqali O'zbekiston sharoitida sun'iy intellektni joriy etish istiqbollari baholandi.


Tadqiqotda induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Induktiv yondashuv asosida alohida iqtisodiy holatlar va empirik kuzatuvlardan umumiy nazariy xulosalar chiqarildi. Deduktiv metod esa mavjud iqtisodiy nazariyalar asosida sun'iy intellektning kelajakdagi iqtisodiy ta'sirini prognoz qilishda qo'llanildi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv metodi asosida sun'iy intellekt iqtisodiyotning tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu metod sun'iy intellektning iqtisodiy tizimning boshqa unsurlari — kapital, mehnat, institutlar va innovatsion muhit bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqot davomida statistik va grafik tahlil metodlari ham qo'llanildi. Xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, OECD, IMF) ma'lumotlari asosida sun'iy intellekt bilan bog'liq ko'rsatkichlarning iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri mehnat unumdorligi o'sishi misolida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida rivojlangan mamlakatlarda sun'iy intellektidan foydalanish darajasi ortishi bilan iqtisodiy ko'rsatkichlar, mehnat unumdorligi o'sishi o'rtasida musbat bog'liqlik mavjudligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Sun'iy intellektidan foydalanish darajasi oshishi fonida mehnat unumdorligi o'sishining dinamikasi (2015–2023 yy.)

Yuqoridagi grafikda 2015–2023-yillar oralig'ida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayonining kuchayishi fonida mehnat unumdorligi o'sish sur'atlarining barqaror oshib borayotgani kuzatiladi. Dastlabki yillarda unumdorlik o'sishi nisbatan past bo'lgan bo'lsa, sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va raqamli boshqaruv tizimlarining keng joriy etilishi natijasida ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan. Ushbu grafik sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi mehnat unumdorligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aks ettiradi. Grafikdagi ma'lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy adabiyotlar asosida shakllantirilgan bo'lib, tendensiyaning ko'rsatish maqsadida keltirilgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni qisqartirish va qaror qabul qilish tezligini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat Brinolfsson va Makkafi tomonidan ilgari surilgan "raqamli texnologiyalar unumdorlikni keskin oshiradi" degan ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari sun'iy intellektning iqtisodiy ta'siri bir xil taqsimlanmasligini ham ko'rsatadi. Yuqori malakali mehnat talab qilinadigan sohalarida ijobiy samara yuqori bo'lsa, an'anaviy va past malakali ish o'rinlarida qisqarish xavfi yuzaga kelmoqda. Bu holat Ajemoglu va Restrepo tomonidan ta'kidlangan texnologik notenglik muammosi bilan mos keladi.

Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarining jahon va mahalliy iqtisodiyotni shakllantirishda sezilarli rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt global iqtisodiyotga katta miqdorda ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, IDC kompaniyasi prognoziga ko'ra, sun'iy intellekt 2030-yilga borib global iqtisodiyotga umumiy hisobda \$19,9 trillionga yaqin qo'shimcha qiymat qo'shadi; bu 2024-yilda atigi \$1,2 trillion bo'lgan qiymatdan sezilarli darajada yuqoridir.

Shuningdek, dunyo bo'yicha sun'iy intellektning iqtisodiy ta'siri mehnat unumdorligiga ham sezilarli ravishda ta'sir qilmoqda: PwC hisobotiga ko'ra, 2018–2022 yillar orasida sun'iy intellektidan keng foydalaniladigan sohalarida mehnat unumdorligi o'rtacha 4,3% ga oshgan, bu o'sish raqami sun'iy intellektidan kam foydalanadigan sohalaridan ancha yuqori.

Xalqaro Valyuta Fondi (IMF) 2024-yilda e'lon qilgan hisobotida aytilishicha, ilg'or iqtisodiyotlarda sun'iy intellekt 60% ga yaqin ish o'rinlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ko'plab vazifalar avtomatlashtirilib, mehnat bozoridagi talablar o'zgaradi.

O'zbekiston kontekstida sun'iy intellektning aniq statistik ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy statistika yetarli miqdorda e'lon qilinmayotgan bo'lsa-da, mahalliy tadqiqotlar SI texnologiyalarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi samaradorlikni oshirayotganini qayd etadi. Masalan, O'zbekistonda SI texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtirilib, resurslardan foydalanish samaradorligi oshayotgani ta'kidlangan.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt kichik va o'rta biznes sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga yordam bermoqda, chunki tadbirkorlar ma'lumotlarni tahlil qilish, mijozlar bilan ishlash va biznes jarayonlarini avtomatlashtirishda SI vositalaridan foydalanmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt investitsiyalari va samaradorlik o'sishi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Global darajada investitsiyalar o'sib borar ekan, 2030-yilgacha sun'iy intellekt tufayli foyda va samaradorlik sezilarli darajada oshadi. Bu raqamlar jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi jarayonida sun'iy intellektning strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

Shuningdek, mahalliy darajada sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'siri ijobiy bo'lishi uchun ta'lim, malaka oshirish va strategik integratsiya bo'yicha chora-tadbirlar zarur ekanligi aniqlandi. Bu esa O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, SI texnologiyalarini joriy etishda davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashning muhimligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar sharhi, metodologik yondashuvlar hamda tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'siri bir xil taqsimlanmayotgani, ayrim sohalarida bandlik muammolari va ijtimoiy notenglik xavfi yuzaga kelayotgani aniqlandi. Bu holat texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda mos institutsional va ijtimoiy mexanizmlarni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan ilmiy xulosalarga asoslanib, quyidagi yakuniy ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, sun'iy intellektni iqtisodiy rivojlanish strategiyalariga tizimli ravishda integratsiya qilish zarur. Davlat darajasida sun'iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqilib, ularni sanoat, moliya, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasiga bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, mehnat bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni yumshatish maqsadida kadrlarni qayta tayyorlash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish tizimini kuchaytirish lozim. Sun'iy intellekt sharoitida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha ta'lim dasturlarini kengaytirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Uchinchidan, sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflik va mas'uliyatni ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni yaratish muhim hisoblanadi. Algoritmik boshqaruvda etik me'yorlar va huquqiy tartibga solish iqtisodiy ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash orqali sun'iy intellekt sohasida mahalliy texnologiyalarni rivojlantirish zarur. Bu milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va tashqi texnologik qaramlikni kamaytirishga yordam beradi.



Beshinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston sharoitida sun'iy intellektni joriy etishda xalqaro tajribani moslashtirish va mahalliy iqtisodiy sharoitlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Bu sun'iy intellektning iqtisodiy samaradorligini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt iqtisodiy o'sishning strategik omili sifatida qaralishi lozim. Uni samarali boshqarish va oqilona joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy farovonlikka erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Solow, R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth. // Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70(1). – pp. 65–94.
2. Acemoglu, D., Restrepo, P. Artificial Intelligence, Automation and Work. – National Bureau of Economic Research (NBER Working Paper No. 24196), 2018.
3. Autor, D.H. Why Are There Still So Many Jobs? The History and Future of Workplace Automation. // Journal of Economic Perspectives. – 2015. – Vol. 29(3). – pp. 3–30.
4. Keynes, J.M. Economic Possibilities for our Grandchildren. – London: Macmillan, 1930.
5. OECD. *Artificial Intelligence and Productivity*. Paris, 2023.
6. Improving mechanisms for attracting foreign investments, A Sobirov - Muhandislik va iqtisodiyot, 2026.
7. Muvaffaqiyatli startap faoliyatida rol O'ynovchi muhim omillar va O'zbekiston sharoitida startap ekotizmining Rivojlanishi. D Qosimova - Innovation Science and Technology, 2025.
8. Sobirovna K. D., Gafurovich A. N., Abdugafarovich S. A. Forming a management system of organizational culture of the enterprise. – 2021.
9. Sobirov A.A. To'g'Ridan-To'g'Ri Xorijiy Investitsiyalarning o'zbekistonda Iqtisodiy Barqarorlikni Ta'Minlashdagi Ahamiyati Va Uning Dinamik Tahlili //Innovation Science and Technology. – 2025. – T. 1. – №. 11.
10. Kosimova, D. S. Muvaffaqiyatli startap faoliyatida rol o'ynovchi muhim omillar va O'zbekiston sharoitida startap ekotizmining rivojlanishi. Innovation Science and Technology, 87–91. 2025
11. Kosimova, D. S. Fusion of economic and financial factors affecting household deposits in banks: An econometric analysis. Fusion: Practice and Applications, 19(2), 82–91.2025
12. Kosimova, D. S.. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida biznes jarayonlarni transformatsiya qilish: Raqamli texnologiyalar asosida samaradorlikni oshirish yo'nalishlari. Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi, 91–94.2025
13. Kosimova, D. S. Significant development indicators of innovative activity of industrial sectors in the context of modernization of national economy. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 259–262. 2023
14. Kosimova, D. S. Analysis and solutions of the current situation and problems of organizing the activities of small and private business entities in Uzbekistan. World Economics & Finance Bulletin (WEFB), 132–137. 2024

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100